



O'QUVCHILARNING EKOESTETIK KOMPETENSIYASINING BUGUNGI KUN UCHUN AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Alijonova Maftuna

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7918105>

ARTICLE INFO

Received: 01st May 2023

Accepted: 09th May 2023

Online: 10th May 2023

KEY WORDS

Ekoestetik tarbiya, ekoestetik nazariya, ekologik muammolar, autekologiya, demekologiya, sinekologiya, biogeotsenologiya, global ekologiya, evolyutsion ekologiya, tarixiy ekologiya, estetika.

ABSTRACT

Ushbu maqola o'quvchilarda ekoestetik tarbiyani rivojlantirish va shakllantirishning ahamiyatini, dolzarbligini, pedagoglarning ushbu jarayondagi o'rnini, ekoestetik tarbiya aynan qanday tushuncha ekanligini tahlil qiladi. Muallif ekologik muammolarning jahon hamjamiyatiga ta'siri yoki aksincha, insoniyatning atrof-muhitga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rib chiqadi.

Kirish. Biz yashab turgan olam murakkab va mukammal tuzilgan, biz yashayotgan dunyoda hayot kechirish bugungi kunda esa undanda mushkul jarayon.

Hech kimga sir emaski, tabiatdagi har bir tirik jon, har tirik organizm tashqi muhit bilan bir-biriga bevosita va bilvosita bog'langan. Qadimgi davrning o'zidayoq ko'plab oli-u fuzalolar o'z asarlarida o'simliklar, hayvonlar va boshqa tirik jonzotlarning yashashi, hayot tarzi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqliligi xususida bir qancha qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Odamzot tabiat bilan uyg'un holda yashagani uchun, O'zi yashab turgan joy tabiatini o'rganish ularning tabiiy ehtiyojiga aylangan. Bu ehtiyoj tufayli insonlar atrof-muhit, o'simliklar va hayvonot olami, tabiiy sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni sir-asrorlarini tadqiq qila boshlagan. Inson tafakkuri, mantiqiy fikr yuritish qobiliyati, ongi va dunyoqarashi rivojlangani sari, hayotning mohiyatini anglab yetish imkoniyati paydo bo'la boshladi.

"Ekologiya" terminini fanga kiritishga bo'lgan ilk qadam Nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan qo'yildi. E.Gekkel bu ishni 1866 – yilda bajargan bo'lib, u bu atama haqida shunday fikrlar aytib o'tgan: "Ekologiya ayrim individlarning rivojlanishi, ko'payishi, yashashi, populatsiyasi va jamolarning tarkibi hamda o'zgarishlarini yashash muhitiga bog'liq holda o'rganadi". Ekologiya o'zi nima u yunoncha "Oikos" – uy, boshpana, "logos"-fan, ta'limot, degan ma'nolarni anglatadi. Ekologiya biologik tizimlar turiga qarab quyidagi bo'limlarga ajratiladi: autekologiya (faktorial ekologiya), demekologiya (populyatsiyalar ekologiyasi), sinekologiya (jamoalar ekologiyasi), biogeotsenologiya (ekotizimlar ekologiyasi), global ekologiya (biosfera ekologiyasi), evolyutsion ekologiya va tarixiy ekologiya. Avvallari biron



bir shaxsdan ekologiya haqida so'rasangiz, undan faqat "Atrof – muhit bilan bog'liqlik" degan qisqa javobni eshitar edingiz. Ba'zilar esa bu atama haqida tushunchaga ham ega emasdi.

Bugungi kunga kelib istalgan insoningizdan so'rang, ularning dastlab xayoliga kelgan narsa bu ekologik muammolardir. Xo'sh nega bunday? Chunki bashariyatni tabiatga aralashuvi me'yoridan haddan ziyod oshib ketdi. Insonlar ana shu me'yorni unutib qo'ydilar, tabiatning aks qaytarish xususiyati bor ekanligini bila turib tan olgilari kelmadi. Borliqdagi har narsa o'z chegarasi va me'yoriga ega. Ya'ni inson uchun zarur bo'lgan kislarodning me'yorini buzilib, kamayib ketganda, atmosferada gazlar miqdori oshib ketadi. Agarda kislorod miqdori oshib ketganda, yer sirtidagi harorat eng yuqori darajaga ko'tariladi. Go'yoki yer pechga, odamlar esa uning ichidagi qovurdoqqa aylanadi. Bu yakun esa odamzod uchun intiho. Bu bir misol bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin. Ekologiya muammosi hozirgi kunda global muammoga aylanib ulgurangligiga ko'p bo'ldi. Global isish, Antarktida muzlarini erishi va buning oqibatida suv toshqinlarini ko'payishi, azon qatlamini yemirilishi, ko'plab yong'inlar, foydalanish uchun yaroqli bo'lgan chuchuk suv miqdorining kamayishi, bu shunchaki xamir uchidan patir xolos. Bu muammolar insoniyatga tobora ko'proq xavf solib turgan bir davrda, ularga yechim topish dunyo aholisining, barchamizning, yelkamizdagi burch va mas'uliyatdir. Biz bunga shunchaki ko'z yuma olmaymiz. Albatta, ko'plab olimlar bu muammolarni hal etishga urinmoqda, ba'zilarini deyarli hal etishga ham erishishdi. Masalan, endilikda mashinalar yoqilg'ida emas, balki elektrda harakatlanadi, bu havoning ifloslanishini oldini oladi. Ammo bu yetarli mi? "Hammasini o'z holiga qaytarish uchun insoniyat o'z taraqqiyotidan voz kechishi kerak", - ushbu fikr qanchalik o'rinli deb o'ylaysiz. Bir qarashda bu ilojisizdek ko'rinadi, biroq hammasini o'z holiga qaytarish uchun harakat qilmaslik, bizning halokatimiz va yakunimiz bo'lib qolmaydimi?! Buning uchun javobgarlik hissini tuyushimiz, mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak. Xo'sh qanday qilib? Buning turlicha usul va vositalari bor. Qaysiki, har bir kasb egasi o'ziga mos yo'nalishda tabiat uchun shiori ostida foydali xatti-harakatlar qilsin, buning mohiyatini tushunsin. Masalan, plastik idishlar ishlab chiqarayotgan firmalar, ya'ni tadbirkorlar, uning yangi ishlab chiqarish foiz ko'rsatkichiga qaraganda ko'proq uni qayta ishlash uchun sarmoya qilishi kerak. Kamyob, bugungi kunda qirilib borayotgan, Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar terisi yoki go'shti bilan savdo-sotiq qiladigan insonlarga belgilangan jarimani oshirish kerak. Yog'och bilan savdo qiladiganlar ya'ni o'rmonlarni kesadiganlar agar bitta daraxt kessa, xuddi shu turdagi 10 tup daraxt ko'chatini o'tqazishi kerak. Brakanerlar faoliyatiga chek qo'yish lozim. Nega? Sabab, tabiatdagi ozuqa zanjiri uzilsa, boshqa jonzotlarga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Qog'oz bilan ishlashni kamaytirish, ya'ni elektronlashtirish, daraxtlar kesilishini kamaytiradi. Ammo eng katta, mas'uliyatli vazifa bu npedagoglarning zimmasini. Nega deysizmi? Yuqoridagi barcha fikrlarni bola ongiga singdiruvchi, o'rgatuvchi, yo'l ko'rsatuvchi pedagogdir! Shuning uchun oliy ta'limda pedagogika yo'nalishining fan dasturiga tarbiya turlaridan o'quvchilarda ekoestetik tarbiyani rivojlantirish kiritilgan. Chunki bo'lajak ustozning o'zida bu borada yetarli bilimlar bo'lmasa, ish faoliyatida qanday qilib o'quvchilariga buni yetkazib bera oladi? Bir narsaga diqqat qaratishingizni xohlardim, nega kichik maktab yoshidagi bolalar, hatto maktabgacha ta'lim muaassalari tarbiyalanuvchilari nonni yerda, yoki boshqa biror joyda yotganini ko'rsa, ko'ziga surtib olib qo'yadi? Sababi yagona. Chunki bola tug'ilibdiki, non ushoqlarini yerga tashlab yuborsa, kattalar darhol ulani yeg'ib, ko'zlariga surtib, toza joyga olib qo'yadilar. Hech



qachon oyoq bilan bosmaydilar, tepkilamaydilar. Buni ko'rib, o'rganib o'rgangan bola hech qachon nonni isrof qilmaydi, kattalardan o'rganganini takrorlaydi, ne'matni avaylaydi. Qisqa qilib aytganda, qush inida ko'rganini qiladi. Endi o'ylab ko'ring, ekoestetik tarbiya asosida tabiatni asrash va atrof muhitni avaylashni bolaga kichik yoshlardan boshlab o'rgata olsak, ularning avlodlari ham yuksak ekoestetik did sohib va sohibalari bo'lib voyaga yetadilar.

"Ekoestetik tarbiya", "ekoestetik madaniyat" tushunchalari "estetika" atamasi bilan uzviy bog'langan. Estetika (yunoncha aistēsis - "sezgi", "hissiyot") - go'zallik haqidagi falsafiy ta'limot.

Estetikada go'zallik san'at, ijodkorlik, voqelikning inson ongida badiiy aks etishi bilan bog'liq.

Estetik tarbiya - o'quvchilarning san'at va hayotdagi go'zallikni to'liq idrok etish va to'g'ri tushunish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan turli badiiy va estetik faoliyatni tashkil etish jarayoni. Keling hozir, estetika va ekoestetikaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilaylik.

Estetika	Ekoestetika
Umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga estetik munosabatni shakllantirish, rivojlantirish, o'quvchilarning obrazli fikrlashini turli xil san'at vositalari yordamida amalga oshirish	Atrofdagi hayot go'zalligini anglash, his qilishni o'rgatish
To'liq estetik (badiiy) idrokni, mustaqil estetik baho berish qobiliyatini shakllantirish; hissiy sohani rivojlantirish, badiiy va ijodiy faoliyat ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish	Atrof-muhitni estetiklashtirishda amaliy ishtirok etish orqali tabiatga estetik munosabatni shakllantirish (o'simliklar, hayvonlar, umuman tabiatga)
San'at va adabiyot asarlarini baholash, xatti-harakatlar va faoliyatni o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish	O'quvchilarda tabiat go'zalligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda san'atdan foydalanish.
Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yuksak did sohibi qilib tariyalash	Ona tabiatiga muhabbatni shakllantirish.
Adabiyot, musiqa, tasviriy materiallar, video, kinomateriallar, shuningdek, bolalar havaskorlik tomoshalarini keng jalb etish	tabiat bilan muloqot nimalarni o'rgata olishini izohlash
O'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qurish istagi va qobiliyatidir.	Atrof muhitni go'zallashtirish layoqatini shakllantirish, bu borada keng ko'lamli ishlar olib borish

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Ekoestetika bu ekologiya va estetikani birlashtirib turuvchi ko'prik, bog'lab turuvchi vosita. Buni quyidagi formula asosida berish mumkin.

Ekologiya + Estetika = Ekoestetika

Xulosa shuki, tabiatni go'zallashtirish, uning ko'rkiga ko'rk qo'shish estetik didimizni, fahm-farosatimizni ko'rsatib beradi. Yaqinda bo'lib o'tgan 2022-yil futbol bo'yicha Qatarda



o'tkazilgan Jahon chempionatida yapon xalqi o'zining ekoestetik tarbiyasi bilan butun jahonga o'rnak bo'la oldi, deb o'ylayman (Chunki ular hech qachon o'zidan keyin chiqindi qoldirmaydilar). Stadiondagi barcha chiqindilarni yig'ishtirib, so'ng ketdilar. Buni ular shunchaki ommaviy axborot vositalari uchun yoki kimnidir tazyiqi ostida emas, o'zlari istab bajardilar. Chunki ularning madaniyati, olgan tarbiyasi bunga yo'l qo'ymaydi. Xuddi biz nonni avaylab olib qo'yishimizni birov aytmasa ham qilganimiz kabi. Aynan shuning uchun ham ekoestetik tarbiya bugungi kun uchun muhim va insonni tabiatga do'st qilib qo'yguvchi muhim omil sifatida fanda va jamiyatda yuqori o'rinlarda turadi.

References:

1. A.Sher. —Estetika|| Darslik. Toshkent. «O_zbekiston». 2014. 6-bet.
2. Falsafa. O_quv qo'llanma. Toshkent. —Mumtoz so'z||. 2019. 519 b.
3. Ю.Борев. Эстетика. Москва «Высшая школа» 2002.С.15.
4. 4. D.S.Kadirova . Nafosat falsafasi. —Memtoz so_z||. 2022.57 bet. 5.Борев.Эстетика. Учебник.Москва. 2002.С.481-482.
5. 6.Aesthetic ideal and aesthetic criterion. DS Kadirova 2021 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research 11 3 1748-1760 South Asian Academic Research Journals
6. 7.THE APPEARANCE OF NEW AESTHETIC CRITERIA IN MODERN ART Авторы Dilbar Salihovna Kadirova Дата публикации 2019 Журнал Scientific Bulletin of Namangan State University Том 1 Номер 12 Страницы 72-78.
7. 8.Solihovna K. D., Amirovna Z. A. NON-ART OBJECTS ARE THE PHILOSOPHY OF SOPHISTICATED AESTHETICS OF NATURE //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 20. – С. 94-97. 9.KADIROVA, D. (2023). ZINGIBER OFFICINALE L.-HISTORY AND STUDY. World Bulletin of Social Sciences, 20, 94-97
8. 9.“Ekologiya va hayot” maqola, Matluba Ro'zimova [Yanvar 5, 2019](#).
9. *Ekologiya. Agroekologiya* (A.Ergashev, T.Ergashev) · Saqlash. Haqida. Atrof muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi. 2-qism (S.Qosimova).
10. Kuchkarova, M. A. (2020). Решение Нестандартных Задач Методом Рассуждения На Уроках Математики В Начальных Классах. *Theoretical & Applied Science*, (1), 682-685.
11. Kuchkarova, M. A. THE IMPORTANCE OF LOGICAL PROBLEMS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING OF CHILDREN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 171.
12. Kuchkarova, M. A., & Ganiyeva, S. (2023). FEATURES OF LOGICAL THINKING. *Open Access Repository*, 4(3), 674-679.
13. Kxoldorova, I. (2019). Antisemic relations of generative lexx in Uzbek language. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(6), 327-330.
14. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. *Proceeding of The ICECRS*, 6, 398-400.
15. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Egamberdiyevna, H. M. (2023). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS OF PRIMARY CLASS. *Open Access Repository*, 4(3), 1092-1100.
16. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Salimakhon, M. (2022). Psycholinguistics and Neurolinguistics of Bilingualism. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 387-391.



17. Tojimatovich, J. V. (2023). CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 643-647.
18. Tojimatovich, J. V. (2023). Digital Transformation of Educational Management System. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 202-206.
19. Urinboyevna, E. Y. (2021). Classification of Integrative Education. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 162-164.
20. Urinboyevna, E. Y., & Shahruza, R. (2021). About Gender Equality and the Process of Ensuring It. *International Journal of Innovative Analyzes and Emerging Technology*, 1(7), 54-56.
21. Urinboyevna, E. Y., & Zarina, M. (2022). Existence of Integration in Secondary Schools. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 119-124.
22. Valijonovna, K. I. (2022). THE CONCEPT AND ESSENCE OF DIVERGENT THINKING IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 86-94.
23. Valijonovna, X. I. (2022). METHODS OF INCREASING MOTIVATION TO READING BOOKS IN PRIMARY CLASSES. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 199-205.
24. Valijonovna, X. I., & Kizi, K. G. K. (2022). National Values and Their Specific Characteristics. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 16-19.
25. Zokirova, S. M., & Axmedova, D. O. (2021). WORKING WITH BORROWINGS GIVEN IN DICTIONARIES OF PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *Theoretical & Applied Science*, (3), 275-278.
26. Zokirova, S. M., & Topvoldiyeva, Z. R. (2020). ABOUT BORROWINGS IN THE UZBEK LEXICON. *Theoretical & Applied Science*, (4), 701-705.
27. Абобакирова, О. (2015). Современные проблемы и инновационные подходы подготовки детей к школе. *Молодой ученый*, (3), 891-893.
28. Абобакирова, О. Н. (2020). Жанровые особенности узбекских детских рассказов (на примере творчества Латифа Махмудова). *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 95-98.
29. Абобакирова, О. Н. (2022). ЛАТИФ МАҲМУДОВ ҲИКОЯЛАРИНИНГ СЮЖЕТ ҚҰРИЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 197-202.
30. Акбарова, З. А. (2020). Инсоннинг тили, руҳияти ва онгининг боғлиқлигига доир мулоҳазалар таҳлили. *Международный Журнал Искусство Слова*, 3(2).
31. Акбарова, З. А. (2020). Размышления О Психологической Характеристике Языковой Личности. In *Проблемы Филологического Образования* (pp. 146-151).
32. Зокирова, С. М. (2021). О ОМОСЕМАНТИЧЕСКОЙ КОНГРУЭНТНОСТИ В ЯЗЫКАХ. *Редакционная коллегия*.